

SHOLI NAVLARINI EKISH MUDDAT VA ME'YORLARINING O'SIMLIK O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI

Qashqaboeva Chulpanoy Tulkunovna,

Sholi yetishtirish agrotekhnologiyalari va mexanizatsiya laboratoriyasi mudiri,
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim,
ORCID ID: 0009-0003-4460-7197

Xojamkulova Yulduzoy Jaxonkulovna,

“O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi” laboratoriya mudiri,
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim,
ORCID ID: 0009-0009-4694-7324

Xayitov Maqsadbek Yo'ldashboyevich,

Sholi genetikasi va seleksiyasi laboratoriyasi mudiri,
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim,
ORCID ID: 0009-0004-5625-8112
Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida sholining o'rtapishar “Ixlos”, “Ziynat” va “Tarona” navlarining turli ekish muddatlari va me'yorlarida ekishning o'simlik o'sish sur'atiga ta'siriga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sholi, urug', muddat, iqlim, me'yor, o'simlik, saqlanish darajasi, ko'chat.

Аннотация. В данной статье представлена информация о влиянии посева в условиях лугово-болотных почв Ташкентской области среднеспелых сортов риса “Ихлос”, “Зийнат” и “Тарона” при различных сроках и нормах посева на скорость роста растений.

Ключевые слова: рис, семя, срок годности, климат, норма, растение, норма хранения, саженец.

Abstract. This article provides information on the impact of planting on the rate of plant growth in the conditions of Meadow-swamp soils of the Tashkent region in different planting periods and norms of the middle-growing varieties “Ikhlos”, “Ziynat” and “Tarona”.

Keywords: rice, seed, term, climate, norm, plant, degree of preservation, seedling.

Kirish. Sholi o'simligini azot moddasi bilan o'z vaqtida va kerakli me'yorda oziqlantirilganda fosfor moddasi bilan modda almashinuvi hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Guruch donida esa fosfor, azot, moy, kraxmal va oqsil moddalarini ko'paytiradi. [1;3].

Urug' unib chiqqandan so'ng uning ildizlaridagi to'plangan mineral fosfor – sholi tanasi va barglaridagi hujayralarida organik fosforni sintezlashida zarur omil bo'ladi.

O'simlikni vegetatsiya davridagi o'z vaqtida azot va fosfor bilan optimal darajada oziqlantirish urug'ining unib chiqishi, ildiz qismini kuchaytirish, tuplanish va naychalanish jarayonlarini tezlashtiradi, yoki azot va fosfor moddalarining me'yorlari, oziqlantirish davrlari buzilganda sholi o'simligining nafas olishi va uning rangi buzilishi holatlari ro'y beradi[2;4;5].

Material va uslublar. Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti seleksioner olimlari tomonidan yaratilgan o'rtapishar sholi navlarini turli muddat va me'yorlarda ekib olib borilgan tajribalarda sholi o'simligi unib chiqish davrida o'simlikning o'sish sur'ati 2-5 sm ga nazoratga nisbatan sinalayotgan sholi navlarida yuqori ekanligi kuzatildi. Tuplash fazasidan boshlab barcha muddatlardagi keyingi rivojlanish fazalarining o'tishi aniqlab borildi.

Natijalar va munozara. Sholi navlarida ekish me'yori oshishining unib chiqish fazasidan boshlab o'simlik bo'yiga ta'siri sezilarli darajada bo'lmadi. Maysalash fazasida sholining “Ixlos” navida 10-20-30 mayda 4-5-6 mln. dona/ga me'yorida

o'simlikning o'sish sur'atida 3-9 sm gacha farq bo'lganligi kuzatildi. Sinalayotgan yangi navlarning hammasida unib chiqish davrida ekish me'yorlari bo'yicha solishtirganda 2-5 sm ga farq borligi aniqlandi (1-jadval).

Tajribada “Ziynat”, “Tarona” sholi navlari barcha ekish muddatlari va ekish me'yorlarida o'simlik o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib, har bir oziqlantirishdan keyin bo'yining o'sishi tezlashgani kuzatildi. Jumladan, “Ziynat” sholi navida 4 mln. dona/ga (120 kg) ekilgan variantlarda “Tarona” naviga nisbatan o'simlikning bo'yi 10-15 sm ga past bo'lganligi aniqlandi. Lekin, bu ko'rsatkich “Ziynat” navi hosildorligiga o'z ta'sirini ko'rsatmadi.

Sholi o'simligi o'suv davrlarida unib chiqish davridan tuplash davrigacha (birinchi oziqlantirish) bir xil muddatda o'tdi. Tuplash fazasidan boshlab barcha muddatlardagi keyingi rivojlanish fazalarining o'tishi ekish me'yorlariga bevosita bog'liqligi aniqlandi. Ekish me'yori ortgan sari sholi o'simligining bo'yini baland bo'lishi, lekin tuplanish soni oz bo'lishligi tajribamizda kuzatildi.

“Tarona” sholi navi o'simligining o'sish sur'atlari boshqa sinalayotgan navlarga nisbatan uchchala ekish me'yorlarida ham 10-15 sm ga yuqori bo'ldi. Sababi bu navning barglari tik o'suvchi, yotib qolishga chidamli ekanligi hamda kechpishar bo'lganligi sababli 20-30 may muddatlarida ekilganda vegetativ organlarini rivojlanishi ko'k massa hosil qilishi yuqori ekanligi tajribada aniqlandi.

Sholi navlarini ekish muddat va me'yorlarining o'simlik o'sish sur'atiga ta'siri, sm.

Sholi navlari	Ekilgan muddat	Ekish me'yor, mln. dona/ga, kg	O'lchov muddatlari				
			30.05	20.06	10.07	01.08	20.08
Ixlos	10 -may	4 mln/124 kg	16,3	30,1	62,5	98,0	120,4
		5 mln/156 kg	15,9	32,7	69,0	114,3	131,0
		6 mln/188 kg	17,4	34,0	71,5	117,0	134,5
	20-may	◇	10.06	30.06	20.07	10.08	30.08
		4 mln/124 kg	14,6	38,5	71,5	118,0	121,5
		5 mln/156 kg	16,5	41,9	78,3	121,4	126,1
		6 mln/188 kg	14,7	44,1	83,6	126,0	131,0
	30 may	◇	20.06	10.07	30.07	20.08	10.09
		4 mln/124 kg	19,5	43,0	88,0	112,5	118,4
		5 mln/156 kg	20,5	56,3	115,4	122,3	126,0
		6 mln/188 kg	23,0	62,0	120,3	129,0	132,5
		◇	30.05	20.06	10.07	01.08	20.08
Ziynat	10-may	◇	30.05	20.06	10.07	01.08	20.08
		4 mln/132 kg	16,4	30,1	66,5	88,3	111,6
		5 mln/165 kg	17,2	32,7	74,3	92,5	121,0
		6 mln/198 kg	18,3	34,5	80,5	98,0	123,8
	20-may	◇	10.06	30.06	20.07	10.08	30.08
		4 mln/132 kg	15,2	39,5	71,6	86,6	106,0
		5 mln/165 kg	16,8	41,7	83,0	90,5	113,2
		6 mln/198 kg	17,7	43,5	86,4	96,4	116,0
	30-may	◇	20.06	10.07	30.07	20.08	10.09
		4 mln/132 kg	19,5	42,3	71,5	86,0	106,4
		5 mln/165 kg	21,7	55,6	83,0	89,3	112,7
		6 mln/198 kg	23,5	59,0	87,4	96,0	116,0
Tarona	10-may	◇	30.05	20.06	10.07	01.08	20.08
		4 mln/136 kg	15,6	29,4	61,0	93,9	123,0
		5 mln/170 kg	16,2	31,5	65,7	97,0	120,4
		6 mln/204 kg	18,1	31,7	71,4	102,5	124,0
	20-may	◇	10.06	30.06	20.07	10.08	30.08
		4 mln/136 kg	14,6	39,5	75,5	113,0	124,0
		5 mln/170 kg	16,1	41,4	88,0	118,4	130,4
		6 mln/204 kg	15,9	44,1	91,5	127,5	135,5
	30-may	◇	20.06	10.07	30.07	20.08	10.09
		4 mln/136 kg	20,5	42,1	72,0	97,5	118,0
		5 mln/170 kg	22,8	58,6	80,6	106,8	120,3
		6 mln/204 kg	23,5	63,0	87,0	112,4	127,0

Xulosa. Sholi navlari biologik va boshqa xususiyatlarining bir-biridan birmuncha farq qilishi o'simlikning o'sish sur'atida ham namoyon bo'lishligi tajribada aniqlandi. Aynan bir xil tashqi

shart-sharoitlar turli ekish muddatlari va har xil ekish me'yorlarida sholining o'rtaqishar yangi yaratilgan "Ixlos", "Ziynat", "Tarona" navlari turli o'sish sur'atlariga ega ekanligini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR:

1. Зелинский Г.Л. Морфобиологическое обоснование агротехники риса. Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета (Научный журнал Куб ГАУ. 2012.-№03(077). С.-1158-1193
2. Oripov R.O., Xalilov N.X. "O'simlikshunoslik" Toshkent 2006 , 5-7-11-20-27-33-37-44-46-52-57 bet
3. Шеуджен А.Х. Агрохимия и методология агрохимии. КубГАУ.-Краснодар.-2011. С.-655
4. Шеуджен, А.Х. Флагман рисоводства России/ А.Х. Шеуджен, Е.М.Харитонов, Т.Н.Бандерева, Г.А.Галкин и др. Майкоп: ОАО "Полиграфиздат «Адыгея» 2006. С.-380
5. Шеуджен А.Х, Кизинек С.В, Удобрений риса. Майкоп:ГУРИПП "Адыгея".-2004. С.-148